



ARTICLE INFO

Received: 21th December 2022
Accepted: 28th December 2022
Online: 29th December 2022

KEY WORDS

Boshlang'ich sinf, savod chiqarish, dam olish daqiqasi, bo'g'inlar jadvali, aksini ayt o'yini.

Bizga ma'lumki savod o'rgatish juda murakkab jarayon bo'lib, 4 oy davom etadi. Birinchi sinf o'quvchilari bu jarayonda bir xil o'zlashtira olmaydilar. Ayrim o'quvchilar tez o'rgansalar, ayrimlari o'zlashtirishda ortda qoladilar. Savod o'rgatish jarayoni 2 davrga bo'linadi: Alifbogacha tayyorgarlik davri. (2 hafta) 2. Alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi). 1. Alifbogacha tayyorgarlik davrida bolalar maktab, sinf, tartib-intizomqoidalari, o'quv qurollari, bilan tanishadi, nutq o'stirishga oid mashqlar o'tkazilib, fonematik eshitishni o'stirishdan iborat. I. Alifbogacha tayyorgarlik davri ikki bosqichga bo'linadi: 1. Harf o'rganilmaydigan bosqich (1hafta) 2.Unli tovush va harf o'rganiladigan bosqich (1 hafta)1. Harf o'rganilmaydigan bosqich- bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga "Alifbe"da berilgan rasmlar asosida hikoya, tuzdirishdan tashqari o'zlari bilgan she'r, ertak, hikoya, tezaytish, maqol, topishmoq qo'shiqlar aytiriladi. Yozuv daftari va yozuv chiziqlari

1-SINF O'QUVCHILARIGA ALIFBONI O'RGATISH USULLARI

Mo'ydinova Mo'tabar Nurdinjonovna

Toshkent viloyati Ohangaron tumani

40-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7571976>

ABSTRACT

Mazkur maqolada alifboning paydo bo'lishi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining savod chiqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda qo'llaniladigan metodlar haqida tavsiyalar berilgan.

bilan tanishtiriladi, harf elementlari yozishga o'rgatiladi. 2. Unli tovush va harf o'rganiladigan bosqichda unli tovush-harflar o'rgatiladi. II.Alifbo davri. Bu davr. 31-dekabrgacha davom etib, unda o'quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh -harflar bilan tanishadilar. Savod chiqarish jarayoni bosqichlari bilan ham tanishib oldik. 4 oy davom etadigan ushbu jarayonni bosqichli amalga oshirish davomida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari ham o'quvchilarimiz ham bir qator qiyinchiliklarga uchraydi. Birinchi sinf o'quvchilari bog'chada yoki uyda ko'p vaqtini o'ynab o'tkazganligi sababli sinfda o'tirib,dars mavzusini tinglashi qiyin bo'ladi. Ularni ko'niktirish mashg'ulotlarga qiziqtirish kerak.Sinfxona ko'rinishi jihozlanishida chinakam "mo'jiza" yaratish yaxshi natija beradi. Bunda har o'qituvchi xonaga ertak qahramonlari aks ettirilgan bukletlar tayyorlash, turli xil rangli qog'ozlardan katta harflar yasab sinf pardalariga ilish o'ziga xos bezatish lozim. Alifbogacha tayyorgarlik davrining birinchi



bosqichida rasmlar asosida og'zaki tushunchalar beriladi. Bu jarayonda bolalar tez zerikadilar sababi esa miyani qabul qiluvchi qismi 20 daqiqada yopiladi. O'qituvchi qanchalik tushuntirmasin o'quvchilar qabul qilaolmasligi tabiiy holat. Har 20 daqiqadan so'ng 10 daqiqa dam olish daqiqasi o'tkazish maqsadga muvofiqdir. I. Dam olish daqiqalarida quyidag imavzularda savol-javob o'tkazish mumkin: 1. Gullar ranglari haqida 2. Yoqtirgan mevalari to'g'risida 3. Qushlar 4. Yoqtirgan taomlari 5. She'rlar aytirish II. "Aksini ayt" o'yini: o'qituvchi birinchi so'zni aytibqarama-qarshi so'zni topishlarini aytadi. Masalan: oq-qora, yaxshi-yomon, kun-tun, issiq-sovuq va hokazo. III. "Buni top" o'yini: iste'mol qilinadigan narsalar nomini aytganda chapak chalinishi bolalarga tushuntiriladi. O'qituvchi o'quv qurollari, uy jihozlari, tabiat jismlariga oid so'zlarni vaqtini poylab aralashtirib aytadi. Masalan: anor, asal, ananas, anjir, banan, behi, do'lana, do'lma, jiyda, jilg'a, tosh. Ana shunday davom ettirib boriladi. Bu o'quvchilarni zerikishdan chiqaradi va diqqatini oshirib faollashtiradi. Alifbogacha tayyorgarlik davrining ikkinchi bosqichida unli tovush va harflar o'rgatiladi. a) Talaffuzda to'siqqa uchramasligi. Dastlab hamma bolalar birgalikda talaffuz qiladi, alohida so'rash yaxshi natija beradi. O'quvchilar talaffuz qilishi va o'rganishi har xil. Alohida ishlash 1sinf o'quvchilarini savod chiqarish jarayonida juda muhim. b) cho'zib aytirish. Individual ishlash yaxshi natija beradi. c) Faqat ovozdan tashkil topish. Dastlab hamma bolalar birgalikda talaffuz qiladi, alohida so'rash lozim. Ayrim bolalar ichida to'g'ri talaffuz qilsada aytganda yetarli balandlikda aytmasligi mumkin. Qayta-qayta ishlash lozim.

Alifbodavri. 31-dekabrgacha davom etib, unda o'quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush harflar bilan tanishadi. Alifbo davrida- tovushlarni talaffuzi o'qilishini o'rgansalar, yozuv darsida harflarni to'g'ri va chiroyli o'rgana boshlaydi. Savod o'rgatishda yaxshi natijaga erishish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: 1. "Harfni top". Karton qog'ozga yozilgan o'quvchi uchun o'rganilgan tanish va o'rganilmagan notanish harfarni aralashtirib, o, a, n, m, u kabi o'tilgan harflarni topadi bu qaysi harf ekanligini aytadi, doskaga yozilishini yozadi. 2. Bo'g'inlar jadvalini to'ldirish. Vatman qog'ozga har kuni o'tilgan bo'g'inlarni o'qituvchi tomonidan yozib boriladi. Har kuni bolalar jo'r bo'lib o'qiydilar. So'ng har bir o'quvchiga alohida o'qitiladi. Bu usulda bolalar so'z hosil bo'lishini ko'rib tushinib boradi. Yodda saqlash oson. Masalan: Bo'g'inlarni o'rganamiz no in nom non ni-na ma-na na ma a-na mo o-na mi min Shu tariqa to'ldirib boriladi. So'zlarni o'qish osonlashadi. 1. O'quvchilarga alifbo darsidan ham daftar tutishlarini tashkil etish. Alifbo kitobidagi bosma harflarini yozma shaklda ko'chirishni o'rganib boradilar. 2. Dam olish daqiqalari uchun "So'z topish" o'yini. O'yinda guruhlarda ishlanadi. Qatorlar o'rtasida tashkil etish mumkin. Birinchi o'quvchi so'z aytadi, ikkinchi bola tezlik da sinfdoshi aytgan so'zni oxirgi harfi bilan boshlanuvchi so'zni topib aytishi kerak. "Boychechak" guruhi "Binafsha" guruhi "Moychechak" guruhi ona ana asal lola ayiq qora qulupnay yo'l limon non ninachi ip pilla alla anor Bu usuldan III-chorakda ona tilida foydalansa ham bo'ladi. Ya'ni topgan so'z doskada yozdir ish mumkin.



References:

1. Azizxo'jayeva N.N "Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat" Toshkent 2006
2. Bo'ri Ziyamammedov, Mamarajab Tojiyev "Pedagogik texnologiya - zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009
3. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfini kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. "Academic research in educational sciences", 2(9), 886-889. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889>
4. Saloydinov, S. Q. (2021). Creation of feasibility studies to reduce energy costs in ginneries. "Экономика и социум", 9(88), 147-149.
5. Салойдинов, С. К. (2021). Образовательные кредиты в Узбекистане. "Экономика и социум", 12(91), 470-472.
6. Салойдинов, С. К. (2021). Спрос на рынке дифференцированных продуктов. "Экономика и социум", 12(91), 473-476.
7. Салойдинов, С. К. (2022). С паровой турбиной 471 МВт на Талимарджанской ТЭЦ расчет электрических режимов при максимальной зимней нагрузке.